$$\theta_t = \frac{|e_t|}{|a_t|} \times 100, \quad a_t \neq 0. \quad (3)$$

Bu yerda e_t — real valyuta kursining qarz nisbatiga ta'siri. Mazkur ulush qarzning jami o'zgarishiga emas, avtomatik qarz dinamikasiga nisbatan hisoblanadi.

Shuningdek, kurs ta'siri chiqarib tashlanganda qarz nisbati qanday o'zgarishi aniqlangan.



$$\Delta d_t^{cf} = \Delta d_t - e_t.$$

Bu hisob boshqa omillar o'zgarmaydi degan shart asosida valyuta kursining qarz dinamikasidagi o'rnini ko'rsatadi.

Budjetning qo'shimcha taqchillikka yo'l qo'yish imkoniyatini baholash

Qarz nisbatini oshirmasdan birlamchi budjet taqchilligini qanchaga ko'paytirish mumkinligi fiskal bufer orqali baholangan.

$$FB_t = pd_t^* - pd_t. \quad (4)$$

Bu yerda pd_t^* - qarzning YalMga nisbatini o'zgarmas saqlaydigan birlamchi taqchillik, pd_t - amaldagi yoki prognozidagi birlamchi taqchillik. Musbat qiymat qo'shimcha taqchillik uchun imkoniyat mavjudligini, nol qiymat bu imkoniyat qolmaganini, manfiy qiymat esa taqchillik qarzni barqarorlashtiruvchi darajadan oshganini bildiradi. Ko'rsatkich YalMga nisbatan foizli punktlarda ifodalanadi va DSA ssenariysidagi boshqa shartlar saqlanganda talqin qilinadi.

Shartli majburiyatlarning qarz yukiga ta'sirini baholash

Davlat zimmasiga qo'shimcha majburiyatlar tushishining oqibatlarini DSAning C1 stress-ssenariysi asosida o'rganilgan. Uning natijalari bazaviy ssenariy bilan taqqoslanib, belgilangan chegaragacha bo'lgan zaxiraning qisqarishi hisoblangan.

$$\Delta H = H_{\text{bazaviy}} - H_{C1}.$$

Mazkur farq qo'shimcha majburiyatlar yuzaga kelganda qarz ko'rsatkichi belgilangan chegaraga qanchalik yaqinlashishini foizli punktlarda ko'rsatadi. Bu natija reytingning bevosita o'zgarishini emas, qarz bilan bog'liq xatar darajasidagi o'zgarishni ifodalaydi. Bozor sharoitini qo'shimcha baholash uchun yevroobligatsiyalar spredi, ya'ni taqqoslash uchun olingan obligatsiyaga nisbatan daromadlilik farqi, LIC-DSFdagi 570 bazis punktlilik chegara bilan solishtirilgan.

Natijalar XVJning oltin narxi, iqtisodiy o'sish va xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha prognozlariga bog'liq. Tadqiqot reytingning qarz bilan bog'liq jihatlarini yoritadi, agentliklarning yakuniy bahosi esa davlat institutlari sifati va boshqa omillarni ham hisobga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Suveren kredit reytingini qo'llab-quvvatlovchi makroiqtisodiy omillar. 2025-yilda iqtisodiy o'sishning tezlashishi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi O'zbekiston suveren kredit reytingi uchun qulay sharoit yaratdi. Real YalM o'sishi 2024-yildagi 6,7 foizdan 2025-yilda 7,7 foizga yetdi, 2026-yilning birinchi choragida esa 8,7 foizni tashkil etdi. Yillik inflyatsiya 2024-yil oxiridagi 9,8 foizdan 2025-yil yakunida 7,3 foizga, 2026-yil aprelida 7,0 foizga pasaydi, bazaviy inflyatsiya esa 5,6 foizni tashkil etdi. 2025-yilda budjet taqchilligi YalMning 2,1 foiziga teng bo'lib, belgilangan 3 foizlik chegaradan past shakllandi, joriy hisob taqchilligi esa YalMning 3,9 foizigacha qisqardi. Xalqaro zaxiralar 66,3 milliard dollarga, ya'ni YalMning 45,1 foiziga yetib, prognoz qilinayotgan importning 12 oydan ortiq hajmini moliyalashtirish imkonini berdi.

1-jadval

O'zbekistonning reyting uchun ahamiyatli makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, 2023–2027-yillar¹


Ko'rsatkich	2023	2024	2025	2026*	2027*
Real YalM o'sishi, %	6,3	6,7	7,7	6,8	6,0
Aholi jon boshiga YalM, AQSh dollari	2 922	3 232	3 846	4 528	4 957
Iste'mol narxlarini inflyatsiyasi (yil oxiriga), %	8,8	9,8	7,3	6,8	5,0
Umumiy budjet balansi, YalMga nisbatan %	–4,6	–3,0	–2,1	–1,5	–2,0
Davlat qarzi (PPG), YalMga nisbatan %	30,7	30,9	28,6	28,2	27,2
Yalpi tashqi qarz, YalMga nisbatan %	50,8	53,1	54,2	51,8	49,5
Joriy hisob balansi, YalMga nisbatan %	–7,3	–4,7	–3,9	–3,2	–3,6
Xalqaro zaxiralar, mlrd AQSh dollari	34,6	41,2	66,3	69,8	70,6

1 Manba: XVJ. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation. IMF Country Report No. 26/152. – Washington, D.C., 2026. – 1-jadval, 4b-jadval. * Prognoz.



Bozor ko'rsatkichlari ham O'zbekistonning qarz jalb qilish sharoitlari yaxshilanganini ko'rsatadi. Mamlakatning 10-yillik yevroobligatsiyalari bo'yicha spread, ya'ni taqqoslash uchun olingan obligatsiyalarga nisbatan daromadlilik farqi, 2023-yilda o'rtacha 287, 2024-yilda 270, 2025-yilda 205 va 2026-yilning hisobotda qamrab olingan davrida 159 bazis punktini tashkil etdi. Oxirgi qiymat LIC-DSF doirasida belgilangan 570 bazis punktlik chegaradan 72,1 foiz past bo'lib, investorlar talab qilayotgan qo'shimcha daromadlilik kamayganini bildiradi.

2026-yil aprelida milliy valyutada chiqarilgan 12,2 trillion so'mlik, taxminan 1 milliard dollarga teng yevroobligatsiyalar 12,25 foizli stavkada joylashtirildi. Shu davrda ichki bozordagi davlat obligatsiyalari stavkalari 14–15 foizni, Markaziy bankning asosiy stavkasi esa 14 foizni tashkil etgan. Bu tashqi bozordan nisbatan past stavkada mablag' jalb qilinganini ko'rsatadi, biroq moliyalashtirish xarajatlarini to'liq taqqoslashda obligatsiyalarning muddati va emissiya xarajatlarini ham hisobga olish zarur. Reytingning yaxshilanishi qulay moliyalashtirish sharoitlarini qo'llab-quvvatlovchi omillardan biri sifatida baholanadi.



1-rasm. Davlat qarzi va yevroobligatsiyalar spreadining dinamikasi, 2023–2026-yillar²

Shu bilan birga, aholi jon boshiga daromad ko'rsatkichining bosqichma-bosqich oshib borishi reytingning yanada yaxshilanishini qo'llab-quvvatlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Aholi jon boshiga YalM 2025-yilda 3 846 dollarni tashkil etgan va 2027-yilda 4 957 dollarga yetishi prognoz qilingan. Reyting agentliklari ushbu ko'rsatkichdan mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini baholashda foydalanadi, shu sababli uning oshishi reytingning "BB" darajasidan yuqoriga ko'tarilishi uchun muhimdir.

Qarz ko'rsatkichlarining belgilangan chegaralargacha bo'lgan zaxirasi

(1) formula asosida hisoblangan natijalar 2-jadvalda keltirilgan. Barcha yetti ko'rsatkich belgilangan chegaralardan 50 foizdan ko'proq past bo'lib, o'rtacha nisbiy zaxira 59,9 foizni tashkil etgan. Nisbatan kichikroq zaxira qarzga xizmat ko'rsatish to'lovlarining eksport tushumlariga nisbati bo'yicha kuzatilib, 51,9 foizga teng bo'lgan. Eksport tushumlarining oltin bilan bog'liqligi ushbu ko'rsatkichga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi, chunki oltin narxlarining o'zgarishi eksport tushumlari va qarz to'lovlarining ulushiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2-jadval

Qarz ko'rsatkichlarining me'yoriy zaxirasi (headroom), 2026-yil bazaviy ssenariysi³

Ko'rsatkich	Bazaviy qiymat	Me'yoriy chegara	Farq	Zaxira, %
PPG tashqi qarz joriy qiymati / YalM, %	22,9	55	32,1	58,4
PPG tashqi qarz joriy qiymati / eksport, %	100	240	140	58,3
PPG qarzga xizmat ko'rsatish / eksport, %	10,1	21	10,9	51,9
PPG qarzga xizmat ko'rsatish / budjet daromadlari, %	8,7	23	14,3	62,2
Umumiy davlat qarzi joriy qiymati / YalM, %	26,1	70	43,9	62,7
Yalpi moliyalashtirish ehtiyoji (2026–2028-yillar maks.), %	6,5	14	7,5	53,6
Yevroobligatsiyalar spreadi, bazis punkt	159	570	411	72,1
O'rtacha zaxira	–	–	–	59,9

2 Manba: muallif tomonidan XVJning IMF Country Report No. 26/152 hisoboti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3 Manba: muallif hisob-kitobi. Bazaviy qiymatlar va me'yoriy chegaralar – XVJ va Jahon bankining qo'shma qarz barqarorligi tahlili (IMF Country Report No. 26/152, DSA 1–4-jadvallar). Zaxira (1) formula bo'yicha hisoblangan.



Davlat qarzining qonunda belgilangan chegaralarga nisbatan holati ham qulay. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 29-apreldagi "Davlat qarzi to'g'risida"gi O'RQ-836-son⁴ Qonunga ko'ra, davlat va davlat kafolati ostidagi qarz YaIMning 60 foizidan oshmasligi kerak. Qarz 50 foizga yetganda, hukumat uni kamaytirish bo'yicha takliflar kiritishi lozim. 2025-yil yakunida qarz YaIMning 28,6 foizini tashkil etib, ushbu chegaralardan mos ravishda 31,4 va 21,4 foizli punkt past bo'lgan.

XVJ va Jahon banki baholashida ham O'zbekistonning qarz majburiyatlarini bajarish salohiyati "kuchli" toifaga kiritilgan. Ushbu salohiyatni baholovchi umumlashtirilgan ko'rsatkich (CI) 3,31 ballni tashkil etib, "kuchli" toifa uchun belgilangan 3,05 balldan yuqori bo'lgan. Umumiy ballning 45 foizi mamlakat siyosati va davlat institutlari sifatini baholovchi CPIA ko'rsatkichi hissasiga to'g'ri kelgan. Xalqaro zaxiralarning importni qoplash darajasi bilan bog'liq ikki tarkibiy qismning jami hissasi esa 30 foizni tashkil etgan. Bu xalqaro zaxiralar qarz majburiyatlarini bajarish salohiyatini qo'llab-quvvatlovchi muhim omil ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zaxiralar qiymatining oshishi qisman oltin narxining ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lgani sababli ushbu omilning o'zgaruvchanligini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Qarz nisbatining kamayishida valyuta kursining o'рни. Qarzning kamayishi qaysi omillar hisobiga yuz berganini aniqlash uning barqarorligini baholash uchun muhimdir. Shu maqsadda davlat qarzining YaIMga nisbati o'zgarishi (2) formula asosida tarkibiy qismlarga ajratilgan, 2023–2026-yillar bo'yicha natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval


Davlat qarzi/YaIM nisbati o'zgarishining dekompozitsiyasi, 2023–2026-yillar (YaIMga nisbatan foizli punkt)⁵

Tarkibiy qism	2023	2024	2025	2026*
Qarz nisbatining o'zgarishi	1,5	0,2	-2,4	-0,4
Birlamchi taqchillik	4,0	2,0	1,0	0,3
Avtomatik qarz dinamikasi	-1,7	-2,9	-5,6	-1,7
shundan: foiz stavkasi va o'sish farqi	-1,7	-1,3	-1,7	-1,7
shundan: real valyuta kursi effekti	0,0	-1,6	-3,9	...
Boshqa aniqlangan oqimlar	-0,4	-0,3	-0,3	-0,2
Qoldiq	-0,3	1,5	2,6	1,2
Baholash effekti ulushi (θ), %	0,0	55,2	69,6	...
Kontrfaktual o'zgarish (kurs effektsiz)	1,5	1,8	1,5	...

* Prognoz; prognoz davri uchun kurs effekti alohida ajratilmagan.

2025-yilda davlat qarzining YaIMga nisbati 2,4 foizli punktga kamaygan. Bunda birlamchi budget taqchilligi YaIMning 1,0 foizini tashkil etib, qarzni oshiruvchi omil bo'lgan. Real valyuta kursi ta'siri qarz nisbatini 3,9 foizli punktga, foiz stavkasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi farq esa 1,7 foizli punktga kamaytirgan. Ushbu ikki omilning jami kamaytiruvchi ta'siri 5,6 foizli punktga tashkil etib, uning 69,6 foizi valyuta kursi hissasiga to'g'ri kelgan.

Boshqa omillar o'zgarmagan holda, valyuta kursining ta'siri chiqarib tashlansa, 2025-yilda qarz nisbati 1,5 foizli punktga oshgan bo'lar edi. 2024-yilda ham kurs ta'sirisiz o'sish 1,8 foizli punktga tashkil etgan bo'lar edi, kursning avtomatik qarz dinamikasidagi ulushi esa 55,2 foizga teng bo'lgan. Bu natijalar har ikki yilda so'mning real mustahkamlanishi qarz nisbatini pasaytiruvchi muhim omil bo'lganini ko'rsatadi. Birlamchi budget taqchilligi esa qarz dinamikasiga oshiruvchi yo'nalishda ta'sir ko'rsatgan.



2-rasm. Davlat qarzi/YaIM nisbati o'zgarishining tarkibiy manbalari, 2023–2026-yillar⁶

4 O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 29-apreldagi "Davlat qarzi to'g'risida"gi O'RQ-836-son Qonun: <https://lex.uz/uz/docs/-6446817>

5 Manba: tarkibiy qismlar – IMF Country Report No. 26/152, DSA 2-jadval; θ va kontrfaktual o'zgarish – muallif hisob-kitobi, (3) formula.

6 Manba: muallif tomonidan IMF Country Report No. 26/152 (DSA 2-jadval) ma'lumotlari asosida tuzilgan.



Valyuta kursining qarz nisbatini kamaytirishga qo'shayotgan hissasi kelgusida iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. So'mning real mustahkamlanishini qo'llab-quvvatlagan oltin narxlar va xalqaro pul o'tkazmalari o'zgaruvchan omillardir. Prognoz davrida foiz stavkasi, iqtisodiy o'sish va valyuta kursining qarz nisbatini kamaytiruvchi umumiy ta'siri yiliga taxminan 0,9 foizli punktga pasayishi kutilmoqda. Shu bilan birga, so'mning qadrsizlanishi xorijiy valyutadagi qarzning so'mda hisoblangan qiymatini oshiradi. XVJning sezilarli qadrsizlanishni nazarda tutuvchi B5 stress-senariysida davlat va davlat kafolati ostidagi tashqi qarzning joriy qiymati 2027-yilda YalMga nisbatan bazaviy 23 foizdan 27 foizgacha ko'tariladi.

Davlatning tashqi qarzi bilan mamlakatning jami tashqi qarzini ham farqlash zarur. 2025-yilda davlat va davlat kafolati ostidagi tashqi qarz YalMning 28,4 foizidan 25,9 foiziga kamaygan, jami tashqi qarz esa 53,1 foizdan 54,2 foizga oshgan. Bunga xususiy sektor va davlat kafolatsiz qarz olgan davlat korxonalarining tashqi majburiyatlari ortishi sabab bo'lgan. 2022–2025-yillarda xususiy tashqi qarzning YalMga nisbati 6,5 foizli punktga, davlat korxonalarining kafolatsiz tashqi qarzi esa 2,8 foizli punktga oshgan. Reyting agentliklari mamlakatning umumiy tashqi qarz holatini ham baholashi sababli davlat qarzining kamayishi boshqa sektorlardagi qarz dinamikasi bilan birgalikda tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

Budjetning qo'shimcha taqchillikka yo'l qo'yish imkoniyatining qisqarishi

(4) formula asosida hisoblangan fiskal bufer natijalari 4-jadvalda keltirilgan. Bu ko'rsatkich qarzning YalMga nisbatini oshirmasdan birlamchi budjet taqchilligini qanchaga ko'paytirish mumkinligini bildiradi. Bazaviy hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu imkoniyat 2025-yildagi 2,3 foizli punktdan 2026-yilda 0,4 foizli punktga qisqaradi. 2027–2029-yillarda u 0,7–0,9 foizli punkt oralig'ida bo'lib, 2030-yilda –0,1 foizli punktni tashkil etadi. Demak, 2030-yilga borib qo'shimcha taqchillik uchun imkoniyat sezilarli darajada cheklanadi va prognozda birlamchi taqchillik qarz nisbatini barqaror saqlaydigan darajadan biroz yuqori shakllanadi.

4-jadval

Fiskal bufer va davlat qarzi trayektoriyasi, 2025–2031-yillar (YalMga nisbatan foiz va foizli punkt)⁷

Ko'rsatkich	2025	2026	2027	2028	2029	2030	2031
Birlamchi taqchillik (pd)	1,0	0,3	0,8	1,9	2,0	2,0	1,9
Qarzni barqarorlashtiruvchi birlamchi taqchillik (pd*)	3,3	0,7	1,7	2,7	2,7	1,9	1,9
Fiskal bufer (FB = pd – pd*)	+2,3	+0,4	+0,9	+0,8	+0,7	–0,1	0,0
Davlat qarzi, YalMga nisbatan %	28,6	28,2	27,2	26,4	25,7	25,7	25,7

Fiskal buferning qisqarishi birlamchi budjet taqchilligining ortishi bilan bog'liq. Uning YalMga nisbati 2025-yildagi 1,0 foizdan 2029–2030-yillarda 2,0 foizgacha oshishi prognoz qilingan. Foiz to'lovlarisiz hisoblangan budjet xarajatlarning real o'sishi 2025-yilda 9,7 foizni tashkil etgan, 2028-yilda esa 10,9 foizga yetishi kutilmoqda. Bazaviy prognozda davlat qarzining YalMga nisbati 2029-yildan boshlab 25,7 foiz atrofida barqarorlashadi.

Qarz nisbatining barqarorlashuvi reytingni yanada yaxshilashda boshqa iqtisodiy va institutsional ko'rsatkichlarning ahamiyatini oshiradi. Bunday sharoitda aholi jon boshiga daromadning oshishi, davlat boshqaruvi sifatining yaxshilanishi va tashqi moliyaviy xatarlarning kamayishi muhimroq ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, qarzning valyuta tarkibi, muddati va unga xizmat ko'rsatish xarajatlarini yaxshilash ham reytingni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Amaldagi fiskal qoidalarini qo'shimcha daromadlarni jamg'arish mexanizmlari bilan yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud. Budjet taqchilligini YalMning 3 foizi doirasida saqlash talabi daromadlar kutilganidan ko'p tushganda xarajatlarni ham oshirish imkonini beradi. Jumladan, 2025-yilda oltin narxining ko'tarilishi hisobiga olingan qo'shimcha daromadlar yil davomida budjet xarajatlarini oshirishga yo'naltirilgan. XVJ 2027-yil budjetidan boshlab taqchillik chegarasini qo'shimcha qoida bilan to'ldirishni tavsiya etadi. Bunda foiz to'lovlarisiz hisoblangan xarajatlarga yoki mineral resurslardan olinadigan daromadlar hisobga olinmagan birlamchi taqchillikka nominal chegara belgilash taklif qilinadi. Bunday qoidalar xomashyo narxining vaqtinchalik o'sishi sharoitida xarajatlarning barqaror dinamikasini ta'minlashga yordam beradi [14; 15; 16].

Shartli majburiyatlarning qarz barqarorligiga ta'siri. Tahlil qarz ko'rsatkichlari belgilangan chegaralardan ancha pastligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, davlat korxonalari va davlat-xususiy sheriklik loyihalari majburiyatlarining budjet zimmasiga tushishi ushbu zaxira hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday ehtimoliy majburiyatlarni samarali boshqarish qarz barqarorligi va suveren kredit reytingini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning qarz yukiga ta'sirini baholashda qo'llangan stress-test parametrlari 5-jadvalda keltirilgan.

⁷ Manba: pd va pd – IMF Country Report No. 26/152, DSA 2-jadval; fiskal bufer – muallif hisob-kitobi, (4) formula.*



5-jadval

Shartli majburiyatlar stress-testi parametrlari, 2025-yil yakuniga (YalMga nisbatan foiz)⁸

Manba	Majburiyat qoldig'i	Zarba koeffitsienti	Zarba hajmi
Kafolatsiz davlat korxonalari qarzi	15,0	35 %	5,3
DXSh bo'yicha to'g'ridan to'g'ri va shartli majburiyatlar	13,1	35 %	4,6
Moliya bozori (standart qiymat)	-	-	5,0
Birgalikdagi zarba (C1)	-	-	14,8

Izoh: DXSh - davlat-xususiy sheriklik. DXSh portfelining nominal qiymati YalMning 24 foizini tashkil etadi, hukumat bahosiga ko'ra to'g'ridan to'g'ri va shartli majburiyatlar hajmi 13,1 foizga teng.

Davlat korxonalarining davlat kafolatsiz olingan qarzlar asosan banklar va energetika bilan bog'liq tarmoqlarda jamlangan. 2025-yilda ushbu qarzlarning 51 foizi banklar, 26 foizi tog'-kon sanoati, 18 foizi esa neft, gaz va energetika korxonalari hissasiga to'g'ri kelgan. Ularning YalMga nisbati mos ravishda 7,5, 3,8 va 2,7 foizni tashkil etgan. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari portfelining 93 foizi ham energetikaga tegishli bo'lib, bu tarmoqdagi moliyaviy holatning o'zgarishi davlat budjeti majburiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.


Bank sektorida ham kredit sifatini yanada yaxshilash imkoniyatlari mavjud. Nazorat organlari mezonlari bo'yicha muammoli kreditlar ulushi 3,2 foizni tashkil etgan, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosidagi ko'rsatkich esa qariyb ikki baravar yuqori bo'lgan. Shuningdek, tahlil qilingan korxonalarning taxminan 20 foizida foiz to'lovlarini qoplash uchun daromadlar yetarli darajada shakllanmagan.

Ushbu majburiyatlarning davlat zimmasiga tushishi qarz ko'rsatkichlarini belgilangan chegaralarga qanchalik yaqinlashtirishi C1 stress-ssenariysi asosida baholanib, natijalar 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Shartli majburiyatlar zarbasining me'yoriy zaxiraga ta'siri⁹

Ko'rsatkich	Bazaviy	C1 zarba (cho'qqi)	Me'yor	Zaxira, bazaviy, %	Zaxira, C1, %
Davlat qarzi joriy qiymati / YalM, %	26,1	40	70	62,7	42,9
PPG tashqi qarz joriy qiymati / YalM, %	22,9	31	55	58,4	43,6
PPG tashqi qarz joriy qiymati / eksport, %	100	133	240	58,3	44,6
Davlat qarzi joriy qiymati / daromadlar, %	98	150	—	—	—



3-rasm. Davlat qarzining joriy qiymati: bazaviy ssenariy va shartli majburiyatlar zarbasi, 2026–2031-yillar¹⁰

8 Manba: IMF Country Report No. 26/152, DSA 5-matn jadvali.

9 Manba: bazaviy va C1 qiymatlar – IMF Country Report No. 26/152, DSA 3 va 4-jadvallar; zaxira ko'rsatkichlari – muallif hisob-kitobi, (1) formula.

10 Manba: muallif tomonidan IMF Country Report No. 26/152 (DSA 4-jadval, 2-rasm) ma'lumotlari asosida tuzilgan.



C1 stress-ssenariysida qo'shimcha majburiyatlarning davlat zimmasiga tushishi 2027-yilda davlat qarzi joriy qiymatining YalMga nisbatini taxminan 26 foizdan 40 foizgacha oshiradi. Natijada belgilangan chegaragacha bo'lgan nisbiy zaxira 62,7 foizdan 42,9 foizgacha qisqaradi, qarz joriy qiymatining budget daromadlariga nisbati esa 98 foizdan 150 foizgacha ko'tariladi. Alohida soddalashtirilgan hisobda, 2025-yildagi qarz darajasiga YalMning 14,8 foiziga teng qo'shimcha majburiyatlar qo'shilsa, nominal qarz nisbati 28,6 foizdan 43,4 foizga yetadi. Bunda qarzni kamaytirish choralari talab qiluvchi 50 foizlik chegaragacha 6,6 foizli punkt qoladi.

Ko'rib chiqilgan stress-ssenariylar orasida shartli majburiyatlarning davlat zimmasiga tushishi davlat qarzi yukiga nisbatan yuqoriroq ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramay, qarz ko'rsatkichlari belgilangan chegaralardan oshmaydi, bu esa XVJning qarz bilan bog'liq xatarlarni past deb baholashini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, qarz nisbatining qisqa muddatda sezilarli oshishi budget imkoniyatlariga va suveren kredit reytingiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ehtimoliy majburiyatlarni oldindan aniqlash, oshkor qilish va samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Qarz tarkibining barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni. Qarzning barqarorligi uning hajmi bilan birga kreditorlar tarkibi, valyutasi, muddati va foiz shartlariga ham bog'liq. O'zbekiston qarz portfelining suveren kredit reytingi uchun ahamiyatli xususiyatlari 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Davlat qarzi portfelining tarkibi va reyting uchun talqini¹¹

Parametr	Qiymat (2025-yil yakuni)	Reyting uchun talqini
Rasmiy kreditorlar ulushi	76 % (tijorat qarzi 24 %)	Refinanslash va foiz stavkasi xatari nisbatan past
To'g'ridan to'g'ri davlat qarzi / kafolatlangan qarz	89 % / 11 %	Majburiyatlar tarkibi shaffof
Ichki qarzda 1-yildan qisqa muddatli ulushi	9,5 % (2020-yilda 40 %)	Muddat tarkibi sezilarli yaxshilangan
Ichki qarzning yalpi qarz olishdagi ulushi	27 % (2018-yilda 0 %)	Valyuta xatariga bog'liqlik kamaymoqda
Yalpi moliyalashtirish ehtiyoji	4,7 % YalM (2031-yilda ≈6 %)	Me'yordan (14 %) ancha past
Xalqaro zaxiralar	66,3 mlrd dollar; 45,1 % YalM; 13 oylik import	Kuchli likvidlik buferi
Oltinning eksportdagi ulushi	30,3 %	Xomashyo narxlari dinamikasiga sezgirlik

Qarz portfelining asosiy qismini Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki, shuningdek, Xitoy va Yaponiya kabi kreditorlardan uzoq muddatga, qisman imtiyozli shartlarda olingan mablag'lar tashkil etadi. Ichki qarz tarkibida muddati bir yildan qisqa qimmatli qog'ozlar ulushi 2020-yildagi 40 foizdan 2025-yilda 9,5 foizga kamaygan. Bu yaqin muddatda qarzni qaytarish yoki uni yangi qarz hisobiga qoplash ehtiyojini kamaytiradi.

Shu bilan birga, rasmiy kreditorlardan olingan qarzlarning asosan AQSh dollarida ekanligi valyuta xatarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. So'm qadrsizlanganda ushbu qarzlarning milliy valyutadagi qiymati oshadi. Xalqaro zaxiralarning 2025-yilda 25 milliard dollardan ortiq ko'payishi esa asosan oltin narxining ko'tarilishi hisobiga mavjud oltin zaxiralari qiymatining oshishi bilan bog'liq. Oltin jami eksportning 30,3 foizini tashkil etadi, uning eksport qiymati YalMga nisbatan 2027-yildagi 8,1 foizdan 2031-yilda 5,6 foizgacha kamayishi prognoz qilingan.

Shunday qilib, oltin narxi xalqaro zaxiralar, eksport tushumlari va valyuta kursi orqali qarz nisbatiga bir vaqtda ta'sir qiluvchi muhim omildir. Oltin narxining o'zgarishi ushbu ko'rsatkichlar dinamikasiga hamda reytingni qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiy sharoitlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu savdo shartlarining o'zgaruvchanligi suveren obligatsiyalar bo'yicha investorlar talab qiladigan qo'shimcha daromadlilikka ta'sir qilishi haqidagi tadqiqot natijalari bilan mos keladi [9].

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. O'zbekiston davlat qarzi ko'rsatkichlarining belgilangan chegaralardan ancha pastligi suveren kredit reytingini qo'llab-quvvatlovchi omildir. Yetti ko'rsatkich bo'yicha nisbiy zaxira 51,9–72,1 foizni, o'rtacha 59,9 foizni tashkil etgan. Davlat qarzining YalMga nisbati qarzni kamaytirish choralari talab qiluvchi 50 foizlik chegaradan 21,4 foizli punkt past bo'lgan.

11 Manba: IMF Country Report No. 26/152, DSA 1–4-bandlar, 1 va 4b-jadvallar; talqin – muallif.



2. Qarz nisbatining kamayishida valyuta kursi muhim o'rin tutgan. 2025-yilda davlat qarzining YalMga nisbati 2,4 foizli punktga kamaygan, kurs ta'sirining avtomatik qarz dinamikasidagi ulushi esa 69,6 foizni tashkil etgan. Boshqa omillar o'zgarmaganda, kurs ta'sirisiz qarz nisbati 2025-yilda 1,5, 2024-yilda esa 1,8 foizli punktga oshgan bo'lar edi. Har ikki yilda birlamchi budjet taqchilligi qarz dinamikasiga oshiruvchi yo'nalishda ta'sir ko'rsatgan.

3. Bazaviy prognozda qarz nisbatini oshirmasdan qo'shimcha budjet taqchilligiga yo'l qo'yish imkoniyati qisqaradi. Fiskal bufer 2025-yildagi 2,3 foizli punktdan 2030-yilda -0,1 foizli punktga kamayadi, qarzning YalMga nisbati esa 2029-yildan boshlab 25,7 foiz atrofida barqarorlashadi. Bu holat reytingni yanada yaxshilashda qarz ko'rsatkichlari bilan bir qatorda boshqa iqtisodiy va institutsional omillarning ahamiyatini oshiradi.

4. Shartli majburiyatlarning davlat zimmasiga tushishi qarz barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. C1 stress-senariysida davlat qarzi joriy qiymatining YalMga nisbati taxminan 26 foizdan 40 foizgacha oshib, belgilangan chegaragacha bo'lgan nisbiy zaxira 62,7 foizdan 42,9 foizgacha qisqaradi. Alohida soddalashtirilgan hisobda 2025-yildagi nominal qarzga YalMning 14,8 foiziga teng qo'shimcha majburiyatlar qo'shilsa, qarz nisbati 43,4 foizga yetadi.

5. Davlat tashqi qarzining kamayishi bilan bir qatorda mamlakatning jami tashqi qarzi dinamikasini ham hisobga olish muhimdir. 2025-yilda davlat va davlat kafolati ostidagi tashqi qarz YalMning 28,4 foizidan 25,9 foiziga tushgan, jami tashqi qarz esa 53,1 foizdan 54,2 foizga oshgan. Shu sababli xususiy sektor va davlat korxonalarining kafolatsiz qarzlarini ham muntazam kuzatib borish maqsadga muvofiq.

6. Oltin narxi xalqaro zaxiralar, eksport tushumlari va valyuta kursi orqali qarz barqarorligiga ta'sir qiladi. Oltinning jami eksportdagi ulushi 30,3 foizni tashkil etgan, oltin eksportining YalMga nisbati esa 2031-yilda 5,6 foizgacha kamayishi prognoz qilingan. Bu reytingni qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiy sharoitlarning xomashyo narxlari dinamikasiga sezgirligini ko'rsatadi.

Ushbu natijalar asosida suveren kredit reytingi barqarorligini mustahkamlash bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, budjet taqchilligini YalMning 3 foizi doirasida saqlash talabini xarajatlar o'sishini tartibga soluvchi qoida bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Foiz to'lovlarisiz hisoblangan budjet xarajatlarga nominal chegara belgilash xomashyo narxining vaqtinchalik oshishidan tushgan qo'shimcha daromadlarni samarali boshqarishga yordam beradi. Muqobil ravishda, mineral resurslardan olinadigan daromadlar hisobga olinmagan birlamchi taqchillikka chegara qo'yish mumkin.

Ikkinchidan, ehtimoliy majburiyatlarni qoplash uchun maqsadli moliyaviy zaxira shakllantirish maqsadga muvofiq. Davlat-xususiy sheriklik bo'yicha yangi majburiyatlar va jami portfel hajmiga qo'yiladigan chegaralar budjetning ularni bajarish imkoniyatiga mos belgilanishi, davlat korxonalarining qarzlar va ular bilan bog'liq xatarlar ochiq hisobotlarda to'liq yoritilishi lozim.

Uchinchidan, xalqaro zaxiralar tarkibini diversifikatsiya qilish va oltin narxining oshishi hisobiga budjetga tushgan qo'shimcha daromadlarning bir qismini barqarorlashtirish jamg'armasiga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Bu oltin narxi o'zgaradigan davrlarda budjet va tashqi to'lovlar barqarorligini saqlashga yordam beradi.

To'rtinchidan, investitsion reyting darajasiga erishish strategiyasida aholi jon boshiga daromadni oshirish, davlat boshqaruvi sifatini yaxshilash, eksport turlarini ko'paytirish va ichki qarz bozorini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish kerak. Qarzning valyuta tarkibi, muddati va xizmat ko'rsatish xarajatlarini yaxshilash ham ushbu strategiyaning tarkibiy qismi bo'lishi lozim.

Beshinchidan, reyting agentliklariga fiskal xatarlar, davlat korxonalari qarzlar va davlat-xususiy sheriklik majburiyatlari bo'yicha muntazam, jumladan, choraklik ma'lumot taqdim etish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Hisobotlarning to'liqligi va izchilligi mamlakatning moliyaviy holatini aniqroq baholashga yordam beradi.

Keyingi tadqiqotlarda qarzning o'zgarish omillari bilan suveren reyting o'rtasidagi bog'liqlikni o'xshash mamlakatlarning ko'p yillik ma'lumotlari asosida ekonometrik baholash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cantor R., Packer F. Determinants and Impact of Sovereign Credit Ratings // Federal Reserve Bank of New York Economic Policy Review. – 1996. – Vol. 2, No. 2. – P. 37–53.
2. Afonso A. Understanding the Determinants of Sovereign Debt Ratings: Evidence for the Two Leading Agencies // Journal of Economics and Finance. – 2003. – Vol. 27, No. 1. – P. 56–74.
3. Afonso A., Gomes P., Rother P. Short- and Long-Run Determinants of Sovereign Debt Credit Ratings // International Journal of Finance & Economics. – 2011. – Vol. 16, No. 1. – P. 1–15.
4. Mellios C., Paget-Blanc E. Which Factors Determine Sovereign Credit Ratings? // European Journal of Finance. – 2006. – Vol. 12, No. 4. – P. 361–377.



5. Bissoondoyal-Bheenick E. An Analysis of the Determinants of Sovereign Ratings // *Global Finance Journal*. – 2005. – Vol. 15, No. 3. – P. 251–280.
6. Eaton J., Gersovitz M. Debt with Potential Repudiation: Theoretical and Empirical Analysis // *Review of Economic Studies*. – 1981. – Vol. 48, No. 2. – P. 289–309.
7. Arellano C. Default Risk and Income Fluctuations in Emerging Economies // *American Economic Review*. – 2008. – Vol. 98, No. 3. – P. 690–712.
8. Reinhart C., Rogoff K., Savastano M. Debt Intolerance // *Brookings Papers on Economic Activity*. – 2003. – No. 1. – P. 1–74.
9. Hilscher J., Nosbusch Y. Determinants of Sovereign Risk: Macroeconomic Fundamentals and the Pricing of Sovereign Debt // *Review of Finance*. – 2010. – Vol. 14, No. 2. – P. 235–262.
10. Reisen H., von Maltzan J. Boom and Bust and Sovereign Ratings // *International Finance*. – 1999. – Vol. 2, No. 2. – P. 273–293.
11. Kaminsky G., Schmukler S. Emerging Market Instability: Do Sovereign Ratings Affect Country Risk and Stock Returns? // *World Bank Economic Review*. – 2002. – Vol. 16, No. 2. – P. 171–195.
12. Gaillard N. A Century of Sovereign Ratings. – New York: Springer, 2011. – 195 p.
13. Bhatia A. Sovereign Credit Ratings Methodology: An Evaluation. – IMF Working Paper WP/02/170. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2002. – 60 p.
14. Frankel J. A Solution to Fiscal Procyclicity: The Structural Budget Institutions Pioneered by Chile. – NBER Working Paper No. 16945. – Cambridge, MA, 2011. – 60 p.
15. Frankel J., Végh C., Vuletin G. On Graduation from Fiscal Procyclicity // *Journal of Development Economics*. – 2013. – Vol. 100, No. 1. – P. 32–47.
16. Eyraud L., Debrun X., Hodge A., Lledó V., Pattillo C. How to Select Fiscal Rules: A Primer. – IMF How-To Note, Fiscal Affairs Department. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2018.
17. Acalin J. et al. Fiscal Guardrails against High Debt and Looming Spending Pressures. – IMF Staff Discussion Note. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2025.
18. Bova E., Ruiz-Arranz M., Toscani F., Ture H. E. The Fiscal Costs of Contingent Liabilities: A New Dataset. – IMF Working Paper WP/16/14. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2016. – 24 p.
19. IMF, World Bank. Guidance Note on the Bank-Fund Debt Sustainability Framework for Low Income Countries. – Washington, D.C., 2018. – 92 p.
20. Sindarov F. From Frontier to Investment Grade? Determinants of Sovereign Credit Rating Dynamics in Uzbekistan. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2026.
21. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation Press Release and Staff Report. – IMF Country Report No. 26/152. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2026. – 112 p.
22. S&P Global Ratings. Sovereign Rating Methodology. – New York: S&P Global Ratings, 2017.
23. Fitch Ratings. Sovereign Rating Criteria. – London: Fitch Ratings, 2025.
24. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 29-apreldagi "Davlat qarzi to'g'risida"gi O'RQ-836-son Qonuni: <https://lex.uz/uz/docs/-6446817>
25. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat qarzini boshqarish strategiyasi, 2026–2028-yillar. – Toshkent, 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
